

КОМПОЗИТСИОН USUL ORQALI SO‘Z YASALISHINING O‘ZIGA XOSLIKLARI

*Andijon Davlat chet tillari
instituti,*

talabasi Akbarova Faridaxon

Botirali qizi

Ilmiy maslahatchi: Abdullayev

Sirojiddin Shaxsultanovich

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek va rus tillarida kompozitsion usul orqali so‘z yasalishining umumiy va farqli jihatlari tahlil qilinadi. Bu ikki tilning grammatik tizimi, fonetik xususiyatlari va imloviy me‘yorlaridagi tafovutlar so‘z yasalishida qanday ifodalanishi aniqlanadi. O‘zbek va rus tillaridagi o‘xshashlik hamda farqlar aniqlanib, ularning leksik tizimdagi o‘rni ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, rus tili, kompozitsion usul, analitik, sintetik shakl, so‘z yasash, morfema, qo‘shma so‘z.

Аннотация: В данной статье анализируются общие и отличительные черты словообразования посредством композиционного метода в узбекском и русском языках. Определяется, как различия в грамматической системе, фонетических особенностях и орфографических нормах этих двух языков проявляются в процессе словообразования. Выявляются сходства и различия между узбекским и русским языками, а также указывается их место в лексической системе.

Ключевые слова: узбекский язык, русский язык, композиционный метод, аналитическая и синтетическая форма, словообразование, морфема, составное слово.

Annotation: This article analyzes the similarities and differences in word formation through compositional methods in Uzbek and Russian languages. It identifies how differences in the grammatical systems, phonetic features, and

orthographic norms of these two languages are reflected in word formation. Additionally, the similarities and differences between Uzbek and Russian are determined, and their place in the lexical system is demonstrated.

Key words: Uzbek language, Russian language, compositional method, analytical, synthetic form, word making, morpheme, compound word.

Til — inson tafakkuri, muloqoti va madaniyatining asosiy ifoda vositasi bo‘lib, undagi har bir leksik birlik o‘zining muayyan ma’nosiga ega. Har bir til zamonaviy ehtiyojlarga muvofiq tarzda doimiy rivojlanib boradi va bu jarayonda turli usullar orqali so‘z yasalishi, xususan, kompozitsion usul muhim rol o‘ynaydi. Kompozitsion usul ikki yoki undan ortiq so‘z yoki so‘z asosining qo‘shilishi orqali yangi leksik birlik hosil qilishning mahsuldor vositasidir. O‘zbek va rus tillarida bu usul umumiylik bilan birga o‘ziga xos fonetik, morfologik va grafik xususiyatlarga ega. Masalan, o‘zbek tilida kompozitsion birliklar ko‘proq mustaqil so‘zlarning bevosita birikishi orqali yasaladi (Temir yo‘l, gultojxo‘roz), rus tilida esa bog‘lovchi unlilar (соединительные гласные) yordamida shakllanishi keng tarqalgan (книга- книг-о-ноша, земля - земл-е-мер, море – мор-е-плаватель).¹

Adabiyotlar tahlili va metodlar: tadqiqotda qiyosiy-tahliliy usul asosida o‘zbek va rus tillarida so‘z yasashga asosan, kompozitsion usul yordamida so‘z yasashga doir grammatik adabiyotlar va matnlar tahlil qilindi. O‘zbek va rus tillarining ilmiy manbalari (o‘zbek tilining izohli lug‘ati, rus tilining izohli lug‘ati, grammatik qo‘llanmalar, ilmiy adabiyotlar va maqolalar) asosida tahlillar olib boriladi. Har ikki tildan olingan so‘z namunalari asosida morfologik va semantik xususiyatlar taqqoslandi. Shuningdek, rus va o‘zbek tillari so‘z yasash uslubining tarjima amaliyotidagi o‘rni ham baholandi.

Muhokama va natijalar. Tildagi muayyan usul va vositalar yordamida yangi so‘z hosil qilish so‘z yasalishi deyiladi. Tilshunoslikda „so‘z yasalishi“ termini ikki ma’noda qo‘llanadi: bir tomondan, tilda yangi so‘z hosil qilish jarayonining o‘zini bildiradi, ikkinchi tomondan esa, tilshunoslikning so‘z yasalish tizimini o‘rganuvchi

¹ В. Н. Немченко “Современный русский язык: Словообразование”, стр.37, “Высшая школа», Москва - 1984

bo'limini bildiradi. So'z yasalishi tilda mavjud bo'lgan so'z yasalishi tarkibini va so'z yasalishi usullarini o'rganadi. So'z yasalishi tizimi morfemika bilan uzviy bog'langan, chunki so'zning ma'noli qismlari — morfemalar (o'zak morfema va affiksial morfema) tilda yangi so'z hosil qilishning eng muhim elementlari hisoblanadi.

Kompozitsion usul bilan so'z yasash deganda, so'z qo'shish yo'li bilan so'z yasash tushuniladi. O'zbek tilida ikki mustaqil so'z ma'lum grammatik shaklda birikadi va birikuvchi so'zlar o'rtasida grammatik aloqa borligi sezilib turadi. Bunday birikish (bog'lanish) natijasida lug'aviy birlik, ya'ni leksema emas, balki sintaktik birlik – so'z birikmasi yoki gap hosil bo'ladi.² Bu usulning asosiy mohiyati — ikki yoki undan ortiq so'z yoki so'z asosining birikishidan yangi leksik birlik hosil qilishdir. O'zbek va rus tillarida ushbu usul o'ziga xos shakl va fonetik vositalar orqali ifodalanadi. V.V. Vinogradov kompozitsion birliklarni "ikki yoki undan ortiq asosning semantik va grammatik birikmasi" deb ta'riflaydi. U so'z yasashning bu turini mustaqil semantik birlik vujudga keltiruvchi semantik sintez deb hisoblaydi.

Har ikki tilda ham so'z yasashda kompozitsion usul mavjud. Kompozitsiya esa so'z qo'shish yo'li bilan so'z yasashdir.³ Aslida bu usul orqali so'z yasash o'zbek tiliga rus tili orqali kirib kelgan. Rus tilida «самолёт» (сам + лёт, (о) - интерфикс), «паровоз» (пар + воз, (о) – интерфикс) kabi ikki mustaqil ma'noga ega morfemani qo'shish orqali so'z yasash keng qo'llanganidek, o'zbek tilida ham kompozitsiya usulida so'z yasash anchagina faol, bunga "toshbaqa" (tosh + baqa), "otquloq" (ot + quloq), xonqizi (xon + qizi) kabi so'zlar misol bo'la oladi.

O'zbek tilida kompozitsion usul asosan mustaqil so'zlar asosida amalga oshadi. Masalan: temiryo'l, qo'lsoat, yong'in o'chirish mashinasi. Bu kabi qo'shma so'zlarda odatda bo'g'inlar soni ortadi, talaffuzda pauzalar yo'qoladi va bir butun ma'no hosil bo'ladi. O'zbek tilida kompozitsion birliklar analitik shaklda (ya'ni ikki so'z orasidagi bo'shliq saqlangan holda) ham, sintetik shaklda (bitik yozilgan holda) ham uchraydi. O'zbek tili so'z yasalishiga oid ishlarda kompozitsiya usuli bilan so'z yasalishi

² Azim Hojiyev "O'zbek tilida so'z yasalishi tizimi", 9-bet, "O'qituvchi", Toshkent - 2007

³ Azim Hojiyev "O'zbek tilida so'z yasalishi tizimi", 7-8-bet, "O'qituvchi", Toshkent - 2007

deganda umuman qo'shma so'zlar, qo'shma so'zlar deganda esa kompozitsiya usuli bilan so'z yasalishi nazarda tutiladi. Lekin qo'shma so'zlarning hammasi ham kompozitsiya usuli bilan hosil qilingan so'zlar emas, binobarin, barcha qo'shma so'zlar kompozitsiya usuli bilan so'z yasalishining obyekti bo'lavermaydi.⁴

Rus tilida esa kompozitsion usulda so'zlar ko'pincha bog'lovchi unli (соединительные гласные: о, е) orqali biriktiriladi: самолёт (само + лет), водопровод (вода + провод), железнодорожный (железо + дорога + ный). Bu tilga xos xususiyat shundan iboratki, ko'plab qo'shma so'zlar prefiksial va suffiksial elementlar bilan boyitiladi va bu ularning morfologik tuzilmasini murakkablashtiradi. Kompozitsion birliklar ko'pincha yangi ma'no beradi. Misol uchun, пылесос so'zi oddiygina "chang" va "so'rib olish" deyilmaydi, balki butun bir maishiy vositani bildiradi. Bu birliklar semantik jihatdan bir butun hisoblanadi. Hozirgi rus tilida kompozitsion usul yangi terminlar, atamalar, brend nomlari, neologizmlar yaratishda keng qo'llanilmoqda (видеосвязь, интернет-ресурс, биоробот). Bu tilning yangilanishi va rivojida muhim vosita hisoblanadi.

Kompozitsion usul o'zbek va rus tillarining so'z boyligini kengaytirishda eng samarali va faol so'z yasash usullaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada ikki tilning kompozitsion birliklari morfologik va fonetik jihatdan tahlil qilinib, o'zaro o'xshashliklar va farqlar ochib berildi. O'zbek tilida kompozitsion usul ko'proq sintetik shakl (bitik yozilish) ko'rinishida namoyon bo'lsa, rus tilida bog'lovchi unlilar orqali murakkab tuzilmalar orqali vujudga keladi. Shu bilan birga, analitik shakllar har ikki tilda ham keng qo'llanilib, hozirgi zamon leksikasida atamaviy birliklar yaratishda muhim rol o'ynaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, har ikki tilda kompozitsion usul orqali yaratilgan birliklar til rivoji, ilmiy va texnik terminlar, tarjima amaliyoti uchun muhim leksik resurs hisoblanadi. Tilshunos yoki til o'rganuvchi uchun bu birliklarning mazmuni, tuzilishi va ishlatilish xususiyatlarini chuqur o'rganish — kasbiy kompetensiyani oshirishda muhim omildir. Tarjimonlar uchun esa bu usulda yasalgan so'zlarning

⁴ Azim Hojiyev "O'zbek tili so'z yasalishi", 97-bet, "O'qituvchi", Toshkent - 1989

ma'nosini to'g'ri anglash, ularni ekvivalentlar orqali to'g'ri tarjima qilish muhim ahamiyat kasb etishi turgan gap.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Botirova R. (2025). "So'z yasashda ikki dunyo: o'zbek va rus tillari o'rtasida o'xshashliklar va tafovutlar".
<https://sciencebox.uz/index.php/ajed/article/view/13670>
2. Виноградов В.В. (1972). "Русский язык. Грамматическое учение о слове". Москва: "Высшая школа"
3. В. Н. Немченко (1984). "Современный русский язык: Словообразование" Москва: "Высшая школа».
4. <https://abiturtest.uz>
5. Hojiyev A, (1989). "O'zbek tili so'z yasalishi". Toshkent: "O'qituvchi".
6. Hojiyev A, (2007). "O'zbek tilida so'z yasalishi tizimi". Toshkent: "O'qituvchi".